# O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son qarorining 7-ilovasiga asosan Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan rivojlantirish dasturlari bo‘yicha 2024-yil 3-chorakda erishilgan natija ko‘rsatkichlari

| № | Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi | O‘lchov birligi | 2024-yil uchun jami | 1.10.2024 holatiga | | | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Ijro | Farqi | Foizda (%) | |
| **Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi** | | **mlrd.so‘m** | **11,6** | **7,2** | **-4,4** | **62,1** | |
| **Strategik maqsad:** Tadbirkorlar va iste’molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta’minlash va raqobat cheklanishining oldini olish | | | | | | | |
| | ***Yakuniy natija ko‘rsatkichi*** | | | | | | |
| 1. | Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy qilinishi. | dona | 180 | 258 | 78 | 143,3% | 2024-yilda jami **180 ta** (o‘sib borish tartibida) korxona faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish belgilangan bo‘lib, shundan **2024-yilning 9 oyi** davomida jami **258 ta** davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi to‘liq joriy etildi. |
| 2. | Raqobat holati tahlil qilinadigan tovar, moliya va raqamli bozorlar soni. | dona | 120 | 109 | -11 | 90,8% | Qo‘mita tomonidan **2024-yilning 9 oyi** davomida **109 ta** tovar va xizmatlar bozorlari tahlil qilindi.<br>Shundan, **14 ta** bozorlar to‘liq, **30 ta** tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobillari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan va **65 ta** mahsulot bilan to‘yinganligi bo‘yicha ekspress tahlillar o‘tkazildi.<br>To‘liq tahlillar:<br>1. Gazni yer ostida saqlash xizmati bozori;<br>2. Don mahsulotlari yetishtirish va sotish bozori;<br>3. Havo transportida yo‘lovchi, yuk va pochta tashish xizmatlari bozorlari;<br>4. Mineral o‘g‘itlarni ulgurji bazalarga yetkazib berish va saqlash xizmati bozori;<br>5. Gipsokarton ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>6. Listlangan oyna ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>7. Temir yo‘llarda yo‘lovchi tashish xizmati bozori;<br>8. Superfosfat ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>9. Karbamid ishlab chiqarish va sotish bozori; |

| № | Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi | O‘lchov birligi | 2024-yil uchun jami | 1.10.2024 holatiga | | | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Ijro | Farqi | Foizda (%) | |
| | | | | | | | 10. Ammiakli selitra ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>11. Formalin ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>12. Sement ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>13. Dori vositalari ishlab chiqarish va sotish bozori;<br>14. Mobil aloqa xizmatlari bozorida raqobat muhiti holatini baholash ishlari olib borildi. |
| | ***Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi*** | | | | | | |
| 3. | Reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishi darajasi (jami o‘tkazilgan monitoringlarga nisbatan) | foiz | 23 | 22 | -1 | 95,6% | Qo‘mita tomonidan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messenjerida tashkil qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) reklamalarni joylashtirilishi va tarqatilishi bo‘yicha jami **19 mingdan ortiq** o‘rganishlar o‘tkazilgan.<br>O‘rganish (monitoring)lar natijasida **4,2 mingdan ortiq** *(22%)* holatda turli kamchiliklar aniqlanib, ularni tezkor bartaraf etish choralari ko‘rilgan.<br>Xususan, peshlavha, tashqi yozuvlar va boshqa e'lonlardagi hamda tashqi reklama vositasidagi reklamalar matni boshqa tillarda berilganligi, reklama va axborotlar matnida lug‘aviy ma'nosi buzilganligi va imloviy xatolar mavjudligi aniqlangan bo‘lib, kamchiliklarni tezkor bartaraf etish choralari ko‘rilgan hamda ularni davlat tili va reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlashtirilishi ta'minlangan. |
| 4. | Tovarlarni ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha nazorat xaridlari soni. | dona | 265 | 451 | 186 | 170,2% | Qo‘mita tomonidan **2024-yilning 9 oyi** davomida davomida jami **451** nomdagi mahsulotlar nazorat xarid qilinib, akkreditasiyadan o‘tgan laboratoriyalarda tekshirilganda, ularning **82** nomdagisi (*18,2%*) amaldagi texnik jihatdan tartibga solish hujjatlariga nomuvofiqligi aniqlangan. Nomuvofiqligi aniqlangan mahsulotlarni savdo rastalaridan qaytarib olish va belgilangan tartibda chora ko‘rish uchun O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuborilgan. |